

**Raqamli transformatsion sharoitda mahalliy budjet daromadlarini  
kengaytirish metodlari va ularni qo'llash xususiyatlari**

**Zikirov Samandar Usmonovich**  
**Termiz davlat universiteti magistratura bosqichi talabasi**

**METHODS OF EXPANDING LOCAL BUDGET REVENUES IN THE  
CONTEXT OF DIGITAL TRANSFORMATION AND FEATURES OF  
THEIR APPLICATION**

**Zikirov Samandar Usmonovich**  
**Master's student of Termiz State University**

**МЕТОДЫ РАСШИРЕНИЯ ДОХОДОВ МЕСТНЫХ БЮДЖЕТОВ В  
УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ И ОСОБЕННОСТИ ИХ  
ПРИМЕНЕНИЯ**

**Зикиров Самандар Усмонович**  
**Магистрант Термезского государственного университета**

**Annotatsiya:**

Ushbu maqola raqamli transformatsion sharoitda mahalliy budjet daromadlarini kengaytirishning samarali metodlari va ularni qo'llash xususiyatlarini tahlil qiladi. Raqamli texnologiyalar va innovatsion vositalar yordamida mahalliy byudjetlar daromadlarini oshirish bo'yicha yangi imkoniyatlar yaratilmoqda. Mahalliy boshqaruv tizimlarining raqamli transformatsiya jarayoni orqali soliq yig'implari, harajatlar monitoringi, va ijtimoiy dasturlarni boshqarish samaradorligi oshadi. Shuningdek, bu jarayonlarda raqamli infratuzilma va platformalarning ahamiyati ko'rsatiladi. Maqolada, raqamli texnologiyalarning mahalliy daromadlarni kengaytirishdagi o'рни va bu metodlarning ijtimoiy, iqtisodiy va huquqiy jihatlari ham ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** raqamli transformatsiya, mahalliy budjet, daromadlar, soliq yig'imi, boshqaruv tizimi, raqamli infratuzilma, innovatsion metodlar, ijtimoiy dasturlar, iqtisodiy samaradorlik, monitoring.

**Annotation:**

This article analyzes effective methods for expanding local budget revenues in the context of digital transformation and the characteristics of their application. New opportunities are being created to increase local budget revenues through digital technologies and innovative tools. The digital transformation of local governance systems enhances the efficiency of tax collection, expenditure monitoring, and management of social programs. Furthermore, the importance of digital infrastructure and platforms in these processes is highlighted. The article also examines the role of digital technologies in expanding local revenues, as well as the social, economic, and legal aspects of these methods.

**Keywords:** digital transformation, local budget, revenues, tax collection, governance system, digital infrastructure, innovative methods, social programs, economic efficiency, monitoring.

**Аннотация:**

В данной статье анализируются эффективные методы расширения доходов местных бюджетов в условиях цифровой трансформации и особенности их применения. С помощью цифровых технологий и инновационных инструментов создаются новые возможности для увеличения доходов местных бюджетов. Процесс цифровой трансформации местных управленческих систем способствует повышению эффективности сбора налогов, мониторинга расходов и управления социальными программами. Также подчеркивается важность цифровой инфраструктуры и платформ в этих процессах. В статье рассматривается роль цифровых технологий в расширении местных доходов, а также социальные, экономические и правовые аспекты применения этих методов.

**Ключевые слова:** цифровая трансформация, местный бюджет, доходы, сбор налогов, система управления, цифровая инфраструктура, инновационные методы, социальные программы, экономическая эффективность, мониторинг.

Mahalliy budjet daromadlaridan samarali foydalanishni ta'minlash muammolarini, ulardan foydalanishning hozirgi holati, bu yo'nalishda mavjud bo'lgan muammolar va ulardan kelib chiqish sabablarini chuqur va atroflicha tahlil qilmasdan hal qilib bo'lmaydi. Bu maqsadga erishish uchun tahlillarimiz jarayonida biz hududlar kesimida ma'lumotlaridan imkon doirasida foydalanishga harakat qilamiz. Bizning fikrimizcha, bu muammoni tadqiqotning markaziy bobi hisoblangan 2-bob doirasida daromad turlari kesimida ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Mahalliy budjet daromadlarini to'ldirishda mahalliy soliqlar bevosita mahalliy darajada faoliyat yurituvchi korxonalar faoliyati bilan bog'liq. Ushbu korxonalar ishlab chiqarishning turli bosqichlarida ishtirok etib, hududlar milliy daromadlarini tashkil etish va taqsimlashda qatnashadi. Shu jihatdan kelib chiqib, mahalliy budjet daromadlarini davlat tomonidan tartibga solish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimiz rahbari 2020 yil 24 yanvardagi Parlamentga Murojaatnomasi doirasida asosiy vazifalar sifatida makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, inflyatsiyani nazorat qilish, tarmoq korxonalarini xususiylashtirish, davlat tomonidan narxlar belgilanishini tartibga solishni bekor qilish va «yashirin iqtisodiyot»ga barham berish, budjet mablag'laridan maqsadli va oqilona sarflanishini nazorat qilishni kuchaytirish kabi vazifalarni belgilab berdilar.

Mamlakatimizda institutsional islohotlar amalga oshirilayotgan bir sharoitda ijtimoiy hayotimizning sohalarida bo'lgani kabi davlat budjetini boshqarishda ham ko'plab o'zgarishlarni amalga oshirish hozirgi kunning asosiy talablaridan biri hisoblanadi.

Mamlakatimizda budjet tizimini yanada isloh qilish, davlat budjetini xalqaro andozalarga muvofiq keladigan tarzda rivojlantirish, budjet istiqbolini belgilashning yangi mexanizmlaridan foydalanish zaruriyati paydo bo'lmoqda. Bu esa O'zbekiston Respublikasida mahalliy budjet daromadlarini istiqbolini belgilashni takomillashtirishni talab etadi.

Umuman olganda, so'nggi yillarda mahalliy budjet ko'rsatkichlari belgilanganidan ham yuqori darajada amalga oshirilishi, defitsitga emas profitsitga erishib kelinmoqda. Iqtisodiyotning davlat sektorini boshqarish borasidagi islohotlar bir qator yo'nalishlarni qamrab oladi:

boshqaruv sohasidagi islohotlar;

budjet munosabatlarini rivojlantirish va tartibga solish, shu jumladan, budjetlararo munosabatlarni takomillashtirish;

budjet jarayonini isloh etish; budjet sohasini qaytadan tashkil etish va boshqalar.

Iqtisodiyotda samarali va ijtimoiy yo'naltirilgan iqtisodiy o'sish surxatlarini ta'minlash va YaIMni oshirish bo'yicha barcha sohalarida aniq, puxta va to'g'ri moliyaviy siyosat shakllantirishni dolzarb vazifa etib qo'ymoqda.

Bunda amalga oshirilayotgan qisqa muddatli moliyaviy rejalar siyosatini keng qamrovli tahlil etish va natijalar hisobini yuritish imkoniyatlari cheklanadi. Shu nuqtai nazardan o'rta muddatli moliyaviy rejalashtirish va prognozlashtirishning (uch yil muddatga) amaliy ahamiyati yanada oshadi.

Ko'plab davlatlar budget jarayonida tadbiriq etilayotgan hamda davlatning makroiqtisodiy va tuzilmaviy siyosati masalalarini nazarda tutuvchi ko'p yillik budgetlashtirishning asosiy jihatlarini umumlashtirgan holda quyidagi xulosalarni olishimiz mumkin:

- eng muhim zaruriyatlar bilan bog'liq istiqbolli maqsadlarni balanslashtiradigan, hozirgi kundagi hamda kelgusi avlodlar manfaatlarini hisobga oluvchi budget tuzishning funktsional modeli amal qiladi;

- bozor sharoitida faoliyat yuritayotgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar uchun budget cheklovlari tizimiga o'tiladi, bunda budget va uning alohida moddalari xajmi davlat vakolatli organlari tomonidan mablag'larga so'ralagan extiyojlaridan kelib chiqib emas, balki o'rnatilgan limitlardan kelib chiqib aniqlanadi;

- vazirliklar tashabbusi bilan qilinadigan xarajatlar ularning resurslar bilan ta'minlanganligi sharoitidagina qabul qilinadi;

- budgetni tuzishda butun e'tibor budget mablag'larini xarjlash orqali erishish lozim bo'lgan uzil-kesil natijalarga qaratiladi;

- o'ta muhim va alohida ahamiyatga ega xarajatlar resurslarni qayta taqsimlash hisobiga moliyalashtiriladi, qo'shimcha moliyalashtirishga esa ushbu xarajatning umumjamiyat oldidagi natijasi uni oluvchilar va millat-davlat manfaatlariga mos kelishini isbotlab berilgan taqdirdagina yo'l qo'yiladi;

Bu, avallambor, qisqa muddatli budgetni rejalashtirish va prognozlashtirish sharoitidagi budget xizmatlarini sifatini oshirishdagi qiyinchiliklarni bartaraf etish, shuningdek, budget-soliq siyosatida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar, xususan asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar (avvalambor, korxonalar moliyaviy resurslari, aholi daromadlari, to'lov balansining shakllanishi va ishlatilishi ko'rsatkichlari) borasida yanada to'liq va aniq hisob-kitoblarni yuritish zaruriyati paydo bo'lishida namoyon bo'ladi.

Bir vaqtning o'zida mahalliy budgetlarning daromadlari manbalarini shakllantirish ko'p omilli jarayon bo'lib, ularning tarkibida solikli daromadlar muhim ahamiyat kasb etadi. Solikli daromadlar soliq ma'muriyatchiligi, mahalliy budgetlar daromadlar bazalarini tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlar hamda siyosiy omillarning ta'siri hisobga olingan holda tashkil etilishi ko'zda tutilgan.

Aytish joizki, hududlarning alohida xususiyatlari hisobga olingan holda mahalliy budgetlar tarkibiy tuzilishi o'rtasida taqsimoti belgilab qo'yilgan (2.1.1-jadval).

O'zbekistonda erkin tadbirkorlikning yanada rivojlanib borayotganligi, mahalliy budgetlar daromadlar ahamiyatini yanada oshiradi. Chunki, ishbilarmonlik sohasidagi daromadlarga cheklovlarning barham topilishi bilan

topilayotgan daromadlarning turlari ham ko‘payib bormoqda, shu bilan birga yuqori daromad oladigan mahalliy budjetlar daromadlari barqarorligi asta-sekin ko‘payib bormoqda.

### 2.1.1-jadval

#### Mahalliy budjetlar daromad manbalari taqsimoti<sup>1</sup>


Tumanlar mahalliy budjetlari	Qozaqalpog‘iston respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrar mahalliy budjetlari
1. Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	1. Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i
2. Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	2. Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i
3. Jismoniy shaxslar mol-mulkini ijaraga berishdan to‘lanadigan hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan daromad solig‘i	3. Elektr stantsiyalari tomonidan to‘lanadigan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq 4. Yakuniy iste‘molchilarga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i
4. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stantsiyalari tomonidan to‘lanadigani mustasno.	5. Aylanmadan soliq 6. Bojxona bojlari
5. Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa‘ridan foydalanganlik uchun soliq, bundan sement xomashyosi va sement ishlab chiqarishda foydalaniladigan ohaktosh mustasno	7. Davlat byudjetiga undiriladigan jarimalar 8. Avtotransport vositalarini xarid qilganlik uchun ularni ichki ishlar organlarida ro‘yxatdan o‘tkazishda avtotransport egalari (foydalanuvchilar) tomonidan to‘lanadigan yig‘imlar
	9. Mobil aloqa xizmati va alkogolli ichimliklar, shu jumladan, pivo uchun aksiz solig‘idan tushumlar, tegishli ravishda Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri aholisining respublika aholisidagi ulushiga muvofiq.

Shuning uchun ham hozirda mahalliy budjetlarda soliqqa tortish amaliyotimiz kam va yuqori daromad oladigan xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar guruhlash tizimiga o‘tish tadbiri daromadlarni adolatli ravishda soliqqa tortish tizimi tomon muhim qadam bo‘ladi. Mahalliy budjet daromadlari tarkibini 2.1-chizmada ko‘rib chiqaylik.

### 2.1.1-rasm.

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi 2019 yil 9 dekabrda “2020 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida” O‘RQ-589-son qonuni asosida tuzildi.

## Mahalliy budjetlar daromadlari tarkibi<sup>2</sup>



2.1.1-rasmga muvofiq, mahalliy budjetlar daromadlari tarkibida o‘z daromadlari, biriktirilgan daromadlar, tartibga soluvchi daromadlar va moliyaviy transfertlar o‘z o‘rniga ega. 2.1.1-chizmada keltirilgan mahalliy budjetlarni daromadlari tarkibi keltirilgan. Ushbu chizmaga asosan mahalliy budjet daromadlar tarkibiga asosan to‘rt guruhga bo‘linishi ko‘rsatib o‘tilgan. O‘z daromadlari tarkibini tahlil qiladigan bo‘lsak, mahalliy soliqlar va yig‘imlar (er va mol-mulk solig‘i, ayrim tovarlar bo‘yicha savdo huquqini beruvchi ruxsatnomalar uchun yig‘im, bozorlardan tushumlari)dan tashkil topgan.

Mamlakatimizda 2017–2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasiga muvofiq hamda mahalliy budjetlarning daromadlari bazasini tubdan mustahkamlash, uning yuqori turuvchi budjetlar ajratmalariga qaramligini qisqartirish maqsadida hududlarni kompleks rivojlantirish barqaror moliyalashtirilishini ta‘minlash, markaz budjetiga qaramlikni keskin kamaytirish, budjetlararo munosabatlarni tubdan isloh qilish orqali mahalliy budjetlar mablag‘larini boshqarishda joylardagi davlat hokimiyati organlarining mustaqil ish olib borishini kuchaytirish mamlakat budjet siyosatining asosiy vazifalari etib belgilangan<sup>3</sup>. Bugungi kunda ustuvor vazifalarning bajarilishi hamda mahalliy budjetlar daromad bazasini kengaytirish va xarajatlarini maqbullashtirishda ularning manfaatdorligini oshirishni ta‘minlaydigan mahalliy davlat hokimiyati organlarining budjet vakolatlari va majburiyatlarini belgilashning zamonaviy mexanizmlarini joriy etishda quyidagilar ko‘rsatib o‘tilgan:

- Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri, tumanlar va shaharlar hokimliklariga o‘z hududidagi soliq to‘lovchilarni to‘liq qamrab olish va soliqlar yig‘iluvchanligini oshirish, yangi ishlab chiqarish korxonalarini barpo

<sup>2</sup> Ilmiy tadqiqot najjasida muallif tomonidan tayyorlangan

<sup>3</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 iyundagi «Mahalliy byudjetlarni shakllantirishda joylardagi davlat hokimiyati organlarining vakolatlarni kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-5075-sonli Farmoni.

etish, ishlamayotgan, iqtisodiy nochor korxonalarining faoliyatini qayta tiklash orqali mahalliy budjet daromadlarini ko'paytirish;

- tegishli budjetlarning tasdiqlangan daromadlari rejasini bajarish, qonunchilik doirasida xarajatlar, shu jumladan, ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar o'z vaqtida va to'liq moliyalashtirilishini ta'minlash;

- Toshkent shahri, tumanlar va shaharlar budjetlarining umumiy hajmidan 1 foiz miqdorida tuman hokimliklari zaxira jamg'armalari shakllantirilishi;

- bir moliya yilidan ortiq bo'lgan davrdagi kassa uzilishlari yuqori budjetdan 2 yilgacha bo'lgan muddatga yillik 2 foizli budjet ssudalari olish orqali qoplanishi va tegishli budjetlar har chorak yakunida shakllantiriladigan daromadlar rejasidan orttirib bajarilgan qismining mustaqil tasarruf etilishi mahalliy budjetlar daromadlar siyosati motivatsiyasini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi<sup>4</sup>.

Shunga mos ravishda, agar tegishli salmoqni ifodalovchi ko'rsatkich darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, uning o'rni ham yuqori va aksincha, xulosaga kelinadi. Shu munosabat bilan 2016-2021 yillar davomida davlat budjeti va mahalliy budjetlar daromadlari tarkibida soliq daromadlarining o'zgarish dinamikasini 2.1.2-jadvalda ko'rib chiqamiz.

### 2.1.2-jadval

#### Hududlar kesimida mahalliy budjetlarining 2018-2023 yillardagi daromadlari<sup>5</sup> (mlrd. so'mda)

Hududlar nomi	2018	2019	2020	2021	2022	2023
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1186,2	1292,2	2241,1	2951,9	2743,9	1614,2
Andijon	1026,4	1264,8	1709,0	2624,6	2105,9	2352,2
Buxoro	1155,2	1335,6	1383,0	2409,4	1782,9	1935,4
Jizzax	685,7	715,4	948,3	1240,7	1058,0	1212,9
Qashqadaryo	1447,6	1786,6	2341,1	3783,3	2468,8	2570,3
Navoiy	685,4	745,3	1217,1	1877,6	1540,9	1535,8
Samarqand	1266,6	1557,3	1970,8	2567,0	2385,6	2657,0
Surxondaryo	970,9	1030,4	1378,3	1844,7	1605,7	1754,7
Sirdaryo	547,2	568,5	710,2	816,6	716,5	745,7
Toshkent	1664,8	1774,9	1949,3	3717,3	2395,5	3009,8
Farg'ona	1980,2	2110,9	1833,2	3835,6	2677,3	2904,9

<sup>4</sup> Moliya vazirligi ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

<sup>5</sup> Moliya vazirligi ma'lumotlari asosida tadqiqotchi tomonidan tayyorlandi.

Xorazm	708,2	881,4	1106,3	1467,2	1302,4	1442,7
Toshkent shahar	2115,5	2440,9	2800,1	3801,8	3156,3	4068,6
<b>Jami</b>	<b>16310,1</b>	<b>18536,3</b>	<b>22947,9</b>	<b>35175,5</b>	<b>27702,9</b>	<b>29774,8</b>

2.1.2-jadvaldan ko‘rinadiki, hududlar kesimida mahalliy budjetlarning 2016-2023 yillardagi daromadlari 2018 yilga nisbatan daromadlarning ortish ko‘rsatkichlari nazarda tutilgan. Ushbu jadvalda ma‘lumotlari xuddi yuqoridagi tarzda tahlil qilinsada, biroq mahalliy budjetlarda daromadlarning barqaror sur‘atlarda ortishi ta‘minlangan.

Mahalliy budjetlar daromadlar manbaini kengaytirish maqsadida qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlari bo‘lgan yuridik shaxslar tomonidan yer solig‘i qishloq xo‘jaligi yerlarining normativ qiymatidan kelib chiqqan holda hisoblanishini joriy qilish to‘g‘risidagi taklifi O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Soliq kodeksi 427-moddasida o‘z aksini topgan (O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2021 yil 30 iyuldagi 06/04-01-32/1115-son ma‘lumotnomasi). Ushbu taklifni amliyotga joriy etish natijada qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar bo‘yicha 2021 yilning I yarim yilida, bu o‘zgarish kiritilgunga qadar bo‘lgan tizim bo‘yicha 156,9 mlrd.so‘m o‘rniga, 22.3 mlrd.so‘m mablag‘ kelib tushdi, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilari ixtiyorida 134,6 mlrd.so‘m mablag‘ qoldirilishi ta‘minlangan.

#### References

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz.- Toshkent, “ O‘zbekiston”, 2017. 488 bet.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston Strategiyasi.- Toshkent, 2021.
7. O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksi. 3-modda O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2013 y., 52-1-son; 25.12.2019 y., 03/19/597/4193-son.
8. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 24-son, 491-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 05.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasining 2008-2020 yillardagi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida»gi 532, 744, 1024, 1245, 1449, 1675, 1887, 2099, 2270, 2455, 2699, 3454, 4555-sonli Qarorlari. www.lex.uz.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 iyundagi «Mahalliy byudjetlarni shakllantirishda joylardagi davlat hokimiyati organlarining vakolatlarini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-5075-sonli Farmoni.



11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y. №6 (766)-son.